

## YANGI O'ZBEKISTONDA AYOLLAR HUQUQLARI KAFOLATLANISHINING HUQUQIY ASOSLARI VA IJTIMOY AHAMIYATI



**Mamasoliyeva Gulnoza Abdurahmon qizi**  
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotasiya.** Maqolada milliy qonunchiligimizda ayollar huquqlarning erkaklar bilan huquqiy jihatdan tengligi tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari o'rganilgan hamda ayollar huquqlarini himoya qilish strategiyasining mohiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ayollar huquqi, gender tenglik, ayollar daftari, tadbirkorlik, zo'rvonlik.

**K**eyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni taminlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirish nihoyatda muhim tamoyildir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yo'q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi kuchli omillardan biridir. Dunyo rivojining hozirgi davrida inson taraqqiyoti, uning huquq va erkinliklari, ijtimoiy adolat va inson xavfsizligini ta'minlash borasidagi jarayonlar uchun ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tengligini amalda ta'minlash masalalari ustuvor vazifalarning biriga aylanmoqda.

Ammo bugungi kunda ayollar huquqlarini ta'minlashda bir qator muammolar mavjud. Muammolarni aks ettiruvchi asosiy jihatlar quyidagilar:

1. Gender tengsizlik: Erkaklar va ayollar o'rtasidagi tengsizlik asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu ish haqi, ta'lim olish imkoniyati, biznes va siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlariga taalluqlidir.

2. Zo'rvonlik: Ayollarga nisbatan zo'rvonlik millionlab ayollar hayotiga ta'sir qiluvchi global muammodir. Bu oiladagi zo'rvonlik, jinsiy zo'rvonlik, odam savdosi va huquqlarning buzilishining boshqa shakllarini o'z ichiga olishi mumkin.

3. Ta'lim olish imkoniyati: Dunyoning ayrim hududlarida ayollar hali ham sifatli ta'lim olishda qiynalmoqda. Bu ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga to'siqlar yaratadi.

4. Sog'liqni saqlash: Bir qator mamlakatlarda ayollar sifatli tibbiy xizmatdan, jumladan, reproduktiv salomatlik xizmatidan foydalanish imkoniyati cheklangan. Bu ularning farovonligi uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

5. Siyosat va yetakchilikdagi ishtiroki: Taraqqiyotga qaramay, ko'plab mamlakatlarda ayollarning siyosat va yuqori rahbarlik lavozimlarida ishtirok etish darajasi hali ham yetarli emas. Mazkur mavzu ayollar huquqlarini himoya qilishni amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini hal etishga qaratilgan.

Ayollar huquqlarini himoya qilishga doir masalalarni tahlil etishda ilmiy bilishning tizimli, mantiqiy, huquqiy, statistik, huquqni qo'llash amaliyoti usullaridan foydalanildi. Shuningdek, jamiyatda ayollar huquqlarini himoya qilishga doir masalalar tahlilida statistik metodidan kengroq foydalanib, bu borada statistika natijalari tahlil etildi.

Mamlakatimizda gender tenglikni taminlashga oid xalqaro - huquqiy hujjatlarni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish orqali mustahkam huquqiy asoslar yaratilmoqda. Xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishining, onalik va bolalik bilan bog'liq davlat siyosati yuritilayotgani, xotin- qizlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeini kuchaytirish, siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bilan bog'liq olib borilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

O'zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta'minlashga alohida e'tibor beradi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib, 1995-yil 6-mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shildi. Shuningdek, Onalikni himoya qilish to'g'risida, Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to'g'risidagi konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yildagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunga muvofiq Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosatini, davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish; jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish; xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilinishini ta'minlash.

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunida davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni kafolatlaydi. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini kafolatlashi belgilangan. Ayollar huquqlarining kafolatlanishi gender tengligini ta'minlaydi. Bu nafaqat ayollarning o'z huquqlarini bilishlari va ulardan foydalanishlariga, balki jamiyatda adolatli munosabatlar o'rnatilishiga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 402-sonli qarori qabul qilindi. Ayollar huquqlari himoya qilingan jamiyatlarda ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi. Ta'lim olgan ayollar esa o'z farzandlariga yaxshi tarbiya berish va ularning kelajagini yaxshilashda muhim rol o'ynaydilar.

Darhaqiqat, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi buning yorqin misolidir. Jumladan, yurtboshimiz tomonidan 2018-yil 2-fevralda imzolangan "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud emas, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlar bilan yakka tartibda ish olib borish amaliyoti yo'lga qo'yilmagan, xotin-qizlar o'rtasida bandlikka ko'maklashish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha faoliyat samarasiz tashkil etilgan; yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy negizlari va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmayapti, erta nikohlarning, oilalardagi nizoli holatlar va ajrashishlarning oldini olish bo'yicha choralarning samaradorligi past darajada qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4235-on qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, ayollarning pensiya yoshiga to'lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60

yoshga to'lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish taqiqlanadi; erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog'liq ishlarning sudlarda ko'rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko'ra davlat hisobidan qoplanadi hamda tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko'maklashiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 42- moddasida xomiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. Ayollar huquqlari kafolatlanganda, ayollar mehnat bozorida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa iqtisodiy o'sishga, oilaviy daromadlarning oshishiga va umumiy farovonlikka olib keladi.

Prezidentimizning 2021-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish; hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish; turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, 11-sentyabr 2023-yildagi PF-158-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasining 25-maqсадida Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish; jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish nazarda tutilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy asos hisoblanadi. Bundan tashqari, jabrlangan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish, ularga psixologik, ijtimoiy, huquqiy va moddiy ko'mak ko'rsatish, shu holatdan chiqishi uchun kasb-hunar o'rgatish, mehnatga jalb qilish maqsadida barcha hududlarda Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Xotin-qizlarni himoya qilishda ichki ishlar organlari ayollar masalalari bo'yicha inspektorlari lavozimi joriy etildi. Shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan huquqbuzarliklarning oldini olishda ularning muammolari haqida o'z vaqtida xabar topish va tegishli idoralar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ishlari ham amalga oshirilmoqda.

### **Natija**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasidagi nutqida "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi".

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda turli darajadagi davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1500 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Hozirgi kunda ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo'yicha tizimli o'quvlar tashkil etilmoqda Ichki ishlar vazirligi tizimida 16 nafar ayol rahbarlik, 6 nafar ayol hokimlik lavozimini egalladi. Turli darajadagi davlat mukofoti sovrindorlari bo'lgan xotin-qizlar soni 2 ming 224 nafarga yetdi. Bugungi kunga qadar 577 nafar ayol "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

So'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni

ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi. Open Data Watch tashkilotining "Gender Data Compass" reytingida 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston 37 bal to'plagan holda 185 ta mamlakat orasidan 56- o'rinni, Markaziy Osiyo mintaqasida 3- o'rinni egalladi. Gender Data Compass mamlakatning gender ma'lumotlari tizimini yaxlit baholashni taminlaydi. U 53ta gender ko'rsatkichlarining 5 jihati: mavjudlik, ochiqlik, asoslar, imkoniyatlar va moliyalashtirish manbalariga taxlil qilinadi. Gender strategiyasini amalga oshirishdan salmoqli natijalarga erishish kutilmoqda. Xususan, yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengayadi. Gender nomutanosiblik mavjud bo'lgan davlat organlarida vaqtinchalik kvotalash tizimini joriy qilish orqali xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan, ayniqsa qishloq joylaridagi oilalardagi xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligini oshirish, shuningdek o'zini o'zi band qilishga erishiladi. Eng asosiysi – xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldi olinib, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan shakllangan salbiy qarashlarga barham beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 21-dekabrda "Oila va xotin qizlar faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208 sonli Farmoni qabul qilindi. Xotin-qizlarning rahbar lavozimlardagi ulushi 35 foizga yetdi, birgina 2022-2023-yillarda 398 ming nafarining bandligi ta'minlandi, 100 ming nafari imtiyozli asoslarda oliygohlarga qabul qilindi, 170 ming nafariga tahsil olayotgan oliygohlarining shartnoma to'lovlari uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi, 14 ming nafari magistraturada bepul o'qitilmoqda, 198 ming nafari kasbga o'qitildi. Bundan tashqari, ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida joriy yilning o'tgan davrida 225 mingdan ziyod loyihalarga 4,4 trillion so'mga yaqin kredit, 40 mingga yaqin xotin-qizlarga jami 179,1 milliard so'm subsidiya ajratildi.

Mamlakatimizda gender tenglikni taminlashga oid xalqaro - huquqiy hujjatlarni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish orqali mustahkam huquqiy asoslar yaratilmoqda. Xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishining, onalik va bolalik bilan bog'liq davlat siyosati yuritilayotgani, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeini kuchaytirish, siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bilan bog'liq olib borilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi — ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi yuksak bosqichga olib chiqish, xotin qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir. Bu o'z navbatida, "Ayollarga ilm berish jamiyatni ilmi, ma'rifatli va salohiyatli qilish" degan qoidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi.

Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa xotin qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

#### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.17.09.2023- yil

3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 3.09.2019-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 402-sonli qarori. 23.06.2020-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 2-fevralda imzolangan "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 7.03.2019- yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. 11-sentyabr 2023-yildagi PF-158-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Oila va xotin qizlar faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208 sonli Farmoni. 21.12.2023- yil.
10. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. Toshkent.: O'zbekiston. 2023.
11. Mirziyoyev. Sh. M. BMT Bosh Assambleyasi 75- sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish.( O'quv qo'llanma). Toshkent.: Ma'naviyat. 2021.